

IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHDA ISLOM MOLIYASINING AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Oripova Irodaxon Faxriddin qizi

TDIU magistratura bosqichi

“Biznesni boshqarish” yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom moliya vujudga kelish tarixi, uning ahamiyati, jahon miqyosda rivojlanish tendensiyalari, islom moliya muassasalarining ishlash tamoyillari hamda Islom moliyasining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Annotation: This article describes the history of Islamic finance, its importance, development trends in the world, the principles of Islamic financial institutions and the specifics of Islamic finance.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, muzoraba, murobaha, takaful, sukuk, salam, istisna, spekulyatsiya

Key words: Islamic finance, mudarabah, murabaha, takaful, sukuk, salam, istisna, speculation

So'nggi yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi, iqtisodiyotning pul sektori bo'lgan moliyada ham turli o'zgarishlar va yangiliklar ro'y bermoqda, yangi tushuncha va atamalar qo'llanila boshlamoqda. Bunga misol tariqasida Islom moliyasining moliyaning yangi bir yo'nalishi sifatida dunyo miqyosda tobora ommalashib borayotganligini ta'kidlash mumkin.

Islom moliyasi nisbatan yangi yo'nalish hisoblanib, uning nazariy asoslari VII asrda Islom dini paydo bo'lgan davrda Muqaddas Qur'on kitobi va Hadislar asosida yaratilgan hisoblanadi. Ammo, bu yo'nalishni amaliyotga tatbiq qilish o'tgan asrning 70-yillari boshlarida Birlashgan Arab Amirliklarida Dubay islomiy banki va Saudiya Arabistonida Islom taraqqiyot banklariga asos solinganda boshlandi. Shunga ko'ra, islom moliyasi sohasi yarim asrdan buyon amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda va uning dunyo miqyosda ommalashishi 2000-chi yillardan boshlandi va bugungi kunda ham qadar tobora rivojlanib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Islom moliyasi 135 dan ortiq mamlakatlarda joriy etilgan bo'lib, global Islomiy moliya aktivlari 2020-yilda 14% ga o'sib, \$3.374 trillionga yetdi. Shuningdek, Islom moliyasi aktivlari 2025-yilga qadar yiliga o'rtacha 8% dan o'sib, 2025-yilda ularning qiymati \$4.95 trillionga yetishi prognoz qilinmoqda¹

Islom moliyasi, shu jumladan islom banklari har qanday inqirozga bardoshli hisoblanadi. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2008-2009-yillarda ro'y bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida birorta ham islom banklari inqirozga uchramagan. Buning asosiy sababi sifatida islom moliyasining asosiy ishlash tamoyillarini keltirish mumkin. Ya'ni, islom moliyasi muassasalari quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritadi:

Risklarni taqsimlash. Kredit, ya'ni qarz berish evaziga undan foiz undirish taqiqlanganligi sababli, sof qarz majburiyatlari tizimdan chiqarib tashlanadi. Natijada, mablag' bilan ta'minlovchilar kreditorlar emas, investorlar hisoblanadilar. Moliyaviy kapital yetkazib beruvchi va tadbirkor biznes jarayonida yuz beradigan risklar taqsimlanishini foyda va zarardagi ulushlarga almashinib oladilar.

Aktivlar asosida faoliyat. Qarz majburiyatlarini taqiqlash va xatarlar taqsimlanishini rag'batlantirish moliyaviy va real sektor o'rtasidagi bevosita aloqa mavjud bo'lgan adolatli iqtisodiy tizimni tiklaydi. Natijada tizim «mavjudlilik» jihatini joriy etadi, u tayanch aktiv bilan bevosita moliyalashtirish orqali shunday munosabatda bo'ladiki, moliyaviy amaliyotlar real sektordagi faoliyat bilan aniq va uzviy bog'liq bo'ladi. Real aktiv samaradorligi va uni moliyalashtirish uchun ishlatiladigan kapital aylanishi o'rtasida uzviy aloqa mavjud bo'ladi.

Spekulyatsiya, ya'ni chayqovchilik faoliyatining taqiqlanishi. Islomiy moliyaviy tizim o'ta yuqori darajada jamg'arishga to'sqinlik qiladi va haddan tashqari noaniqlik, mavhumlik, qimor o'yinlari va risklarni o'z ichiga

¹ <https://www.refinitiv.com/en/resources/special-report/islamic-finance-development-report>

oluvchi faoliyatlar bilan shug'ullanishni taqiqlaydi. Shuningdek, tasodifiy holatlarga asoslangan amaliyotlar, masalan lotereya o'yinlari ham taqiqlanadi. Buning asosiy sababi, mehnat qilish orqali foyda olishni rag'batlantirish hisoblanadi.

Shartnomalarning daxlsizligi va egalik huquqining saqlanishi. Islom moliya shartnomalarida majburiyatlarini qo'llab-quvvatlash va ma'lumotlar ochiqligi asosiy muhim omil hisoblanadi. Ushbu vazifa axborotdan bexabarlik va vijdotsizlik (aldanib qolish) bilan ish yuritish xatarini pasaytirish uchun mo'ljallangan. Islom moliyasida egalik huquqi saqlanishiga katta e'tibor qaratadi, davlat va jamiyat, fuqaro huquqlari o'rtasidagi tenglikni aniqlaydi va shaxsning egalik huquqiga tajovuzni qat'iyani taqiqlaydi.

Islom moliya muassasalari quyidagi shartnomalar asosida faoliyat yuritadi: **Murobaha** shartnomasi tomonlar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi ustama haq evaziga bo'lishiga asoslangan. Murobaha Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan aktivlarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Ushbu shartnoma mijoz, tovarlarni yetkazib beruvchi va Islom banki o'rtasida uch tomonlama imzolanadi. Bank yetkazib beruvchidan qisqa yoki uzoq muddatli aktivni sotib olib, aktiv narxiga ustama qo'yib, mijozga qimmatroqqa narxga belgilangan muddatda to'lash sharti bilan sotadi. Bank moliyalashtirilayotgan aktivni garovga olishi yoki boshqa turdagi kafolatni talab qilishi mumkin. Murobaha shartnomasida sotuvchi o'z yetkazib beruvchisidan tovarlarni sotib olayotganda, xaridorga sotib olishning tannarxini sotishdan oldin aytadi, ya'ni bank tovarning tannarxiga qancha ustama qo'yganini oshkor qiladi.

An'anaviy banklardan farqli ravishda, narx bo'yicha kelishilgan qo'shimcha foyda ma'lum bir muddat o'tsa ham o'zgarmaydi. Amalda Islom banklari an'anaviy banklar bilan raqobatbardoshlikni yo'qotmaslik maqsadida muddatidan oldin to'lovni to'liq amalga oshirsa, Murobaha shartnomasi uchun chegirma berishi mumkin, bunda chegirma Murobaha shartnomasini tuzishdan avval, oldindan kelishib olmaslik asosiy shart qilib belgilanadi..

Muddatida to'lanmagan to'lovlar uchun jarima esa undirish shartnomaga kiritilishi mumkin, ammo xayriya maqsadlarida sarflanishi zarur. Chunki, bu jarima faqat mijozlarni tartibga chaqirish va mijozlar Murobaha shartlarini suiiste'mol qilishlarining oldini olish uchun mo'ljallangan. Bank ushbu jarima pulining bir qismini mijoz to'lovni o'z vaqtida to'lamaganligi tufayli bank tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash uchun olishi mumkin (misol uchun, to'lovlarni undirish uchun ketgan sarf-xarajatlar). Yo'qotilgan imkoniyat yoki mablag' uchun jarima olish mumkin emas.

Muzoraba – bu investor va tadbirkor o'rtasidagi foydaga sherik bo'lishni nazarda tutuvchi shartnoma. Muzoraba shartnomasida investor foydani kelishilgan nisbatda yoki foizda tadbirkor bilan taqsimlashga kelishadi.

a) Tadbirkorlik faoliyati uchun kapital manbai sifatida, tadbirkor Muzoraba shartnomasi bo'yicha Islom bankidan sarmoya olishi mumkin. Agar bank rozi bo'lsa, har ikki tomon ham korxona foydasiga sherik bo'lishni kelishgan holda tadbirkorga mablag' beradi.

(b) Banklar omonat jalb qilish faoliyatida, Muzoraba shartnomasi asosida jismoniy yoki yuridik shaxslardan jalb qilingan pullarga sarmoya sifatida qaraladi. Bank ushbu investitsiyalarni tijorat faoliyatidan, ya'ni jismoniy shaxslar va tadbirkorlarni moliyalashtirish uchun ishlatadi. Muzoraba shartnomasiga asosan, bank omonatchiga investitsiyalar evaziga o'z foydasidan ulushni oldindan kelishilgan nisbat asosida berishga rozi bo'ladi.

Muzoraba shartnomasi asosida investitsiyalarni moliyalashtirish – bu bankning mijozi bo'lgan tadbirkorlar tomonidan olingan foydani taqsimlash maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni ham bo'lishishni nazarda tutadi. Muzoraba shartnomasi ishtirokchilari faqatgina ushbu korxonalar muvaffaqiyatli bo'lgan taqdirda foyda ko'radi. Agar loyiha muvaffaqiyatsiz bo'lsa, moliyachi sarmoyasini yo'qotadi, tadbirkor esa loyihaga sarf qilingan vaqt va kuchi hisobiga zarar ko'radi.

Tadbirkordan ko'rilgan zararining bir qismini zimmasiga olishni talab qilish islom moliyasi qoidalariga zid hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkor ham ishni boshqargani uchun xizmat haqi sifatida foydadan oladigan ulushidan tashqari qo'shimcha haq belgilashi mumkin emas.

Muzorabaning 2 turi mavjud: cheklangan va cheklanmagan.

Cheklangan muzorabada investor kiritgan mablag'lari qaysi sohaga yo'naltirilishini shart qilib belgilaydi va tadbirkor mablag'larni faqat shart qilingan sohalarga sarflash majburiyatini oladi. Cheklanmagan muzorabada

esa, bunday shart mavjud bo'lmaydi va tadbirkor o'z xohishiga ko'ra sarflaydi. Ammo, ikkala turdagi muzorabada ham investor pullari qay darajada adolatli va qonuniy boshqarilayotganligiga ishonch hosil qilish maqsadida, tadbirkor yoki ish boshqaruvchidan hisobot talab qilishi va uning faoliyatini kuzatib, tahlil qilib borish huquqiga ega. Muzoraba Mushorakadan farqli ravishda, investor («robbul mol») biznesni boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega emas.

Mushoraka – bu sherikchilikning bir shakli. Buni odatdagi kapital bozoridagi aksiyalarni sotib olishga o'xshatish mumkin, ammo qilingan investitsiyalar islom moliyasi tamoyillariga mos keladigan aksiyalar va moliyaviy qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar bilan cheklanishi kerak.

Muzoraba kabi aktivlarni moliyalashtirishning bir shakli sifatida, Mushoraka – bu moliyalashtiruvchi tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq xatarlarni bo'lishishni taqozo etadi. Mushorakada barcha sheriklar korxona foydasi yoki zararini bo'lishadigan qo'shma korxona hisoblanadi. Foyda taqsimoti o'zaro kelishilgan nisbatda, ammo zararni taqsimlash nisbati esa doimo sheriklarning kapitalga kiritgan ulushiga asoslangan bo'lishi kerak. Shuningdek, mushoraka shartnomasida investor korxonani boshqarish, kundalik amaliyotlar va korxona faoliyatini rivojlantirish bo'yicha muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishi mumkin.

Foydani taqsimlashda Mushoraka shartnomasida tomonlarning sarmoyadagi ulushi va korxonani boshqarishda sarflagan mehnatlari qarab turlicha bo'lishi mumkin. Mushoraka turli iqtisodiy sohalarni moliyalashtirish uchun eng moslashuvchan va qulay vosita hisoblanadi.

Takaful – arabchada «kafala» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kafolat berish ma'nosini beradi. Aniqroq aytganda, bu «takafala» fe'lidan kelib chiqib, o'zaro kafolat berish va bir-birini himoya qilish ma'nosiga ega. Shuning uchun, so'zma-so'z tarjima qilinganda, bu o'zaro yordamni anglatadi. Ta'kidlash joizki, Takoful shartnomasi bir-birlariga yordam berish g'oyasiga asoslangan bo'lib, har bir ishtirokchi o'zaro himoya qilish kelishuviga ko'ra, har qanday yordamga muhtoj a'zoga moddiy yordam ko'rsatish uchun umumiy jamg'armaga o'z hissasini qo'shadi.

Salam – xomashyo narxini darhol to'lash, xomashyoni esa o'zaro kelishilgan kechiktirilgan muddatda yetkazib berish uchun sotib olishni anglatadi. Salam shartnomasida narx to'liq va oldindan to'lanadi. Ushbu turdagi shartnomalar xomashyo narxi o'zgarishi mumkin bo'lgan joylarda qo'llanilishi mumkin. Xaridor shartnoma imzolangan kunga sotib olish narxi bilan kafolatlanadi va shu bilan narxlarning ko'tarilishidan saqlanadi (demak, risklarni boshqarish vositasi sifatida ishlatiladi).

Istisna – bu sotiladigan obyektni qurish, ishlab chiqarish yoki tiklash uchun belgilangan narx bo'yicha, belgilangan muddat davomida, tomonlar o'rtasida belgilangan xususiyatlarga ega obyektni moliyalashtirish shartnomasi hisoblanadi. Istisnani moliyalashtirishda savdo obyektni quradigan, ishlab chiqaradigan yoki tiklaydigan mijozga avans to'lovlari shaklida taqdim etiladi.

Sukuk – mulkchilik manfaatlarini ifodalovchi investitsiya sertifikati. Sukukni sarmoyadorlarga foyda keltiradigan va an'anaviy aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozga o'xshash Islom moliyalashtirish instrumenti deb tasavvur qilsa bo'ladi. Sukuk ribo yoki foizni taqiqlovchi islom moliyasi tamoyillariga muvofiq tarzda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.I. Bekkin «Islom iqtisodiy modeli va zamon» 2019 yil. 360 bet
2. Mufti Muhammad Taqi Usmani "Introduction to Islamic Finance"
3. E.A. Baydaulet. Islomiy moliya asoslari. 2019
4. Abdulmannon Abdulloh. Tijorat va ishlab chiqarish haqida tasavvur